

Muxayyo Tadjikulova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası doktoranti
E-mail: muxayyo.tad@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9401-8700*

MAQOMNI TARG'IB QILUVCHI MADANIY TADBIRLARNING FARG'ONA VODIYSI AHOLISI O'RTASIDAGI MADANIY INTEGRATSIYAGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Farg'ona vodiysida o'tkaziladigan maqomni targ'ib qiluvchi madaniy tadbirlarning mintaqadagi madaniy integratsiya jarayonlariga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolaning asosiy maqsadi madaniy tadbirlarning madaniy integratsiyaga ta'sirini ijtimoiy, badiiy va siyosiy jihatlarini kompleks tarzda o'rganishdan iborat. Maqola madaniy siyosat, madaniyatshunoslik, etnomuzikologiya va madaniy diplomatiya sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *maqom, madaniy tadbirlar, madaniy diplomatiya, madaniy integratsiya, musiqa, Farg'ona vodiysi, etnik guruhlar, forum, madaniy meros, YUNESCO.*

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ, ПРОПАГАНДИРУЮЩИХ МАКОМ, НА КУЛЬТУРНУЮ ИНТЕГРАЦИЮ НАСЕЛЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу влияния культурных мероприятий, направленных на популяризацию макома в Ферганской долине, на процессы культурной интеграции в регионе. Основная цель статьи заключается в комплексном изучении социальных, художественных и политических аспектов воздействия культурных мероприятий на культурную интеграцию. Статья имеет практическую значимость для специалистов в области культурной политики, культурологии, этномузыкознания и культурной дипломатии.*

Ключевые слова: маком, культурные мероприятия, культурная дипломатия, культурная интеграция, музыка, Ферганская долина, этнические группы, форум, культурное наследие, ЮНЕСКО.

THE IMPACT OF CULTURAL EVENTS PROMOTING MAQOM ON THE CULTURAL INTEGRATION OF THE POPULATION OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. *This article is devoted to analyzing the impact of cultural events promoting maqom held in the Fergana Valley on the regional processes of cultural integration. The primary objective of the paper is to comprehensively examine the social, artistic, and political dimensions of the influence exerted by cultural events on cultural integration. The article holds practical significance for specialists in the fields of cultural policy, cultural studies, ethnomusicology, and cultural diplomacy.*

Keywords: *maqom, cultural events, cultural diplomacy, cultural integration, music, Fergana Valley, ethnic groups, forum, cultural heritage, UNESCO.*

Maqom o'zbek mumtoz musiqasida yetakchi o'rinni egallaydi. Qadim zamonlardan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa madaniyatidagi betakror musiqiy janr sifatida yetuk sozanda, xonandalar va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Maqom – millat ruhiyatini yuksaltiruvchi, o'zligimizni anglatuvchi, haq sari boshlovchi san'at durdonasidir [1, 814-b].

Musiqa, maqom har bir davrda millatimizning go'zal fazilatlari manbayi bo'lib kelgan. Ijodkorga ilhom, olimga ilm bergan musiqa va maqom ularning eng yaqin do'stiga aylangan [2].

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Representativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir [3]. Maqomlar

Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil etadi. Shu sababli maqomlarni atroflicha o'rganilishi musiqa madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega [4, 11-b].

Z.Oripov "Maqom termini XV–XVIII asr manbalarida "lad", "lad tizim"ni anglatdi va o'n ikki maqom parda tizimini bildiruvchi termin tarkibida qo'llanildi. Jamlarning eng komil turlari o'n ikki maqom parda tizimiga kirgan. Ular quyidagilar: Ushshoq, Navo, Busliq, Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand (yoki Kuchak) va Buzurg. O'rta asrlar O'rta va Yaqin Sharq musiqashunosligida, birinchi bo'lib maqom termini shu ma'noda Mahmud Sheroziyning fors tilida yozilgan "Durra atu-toj li g'urra adu-Deboj" ("Deboj ko'rkidagi toj durri gavhari") asarida qo'llagan. Biroq, "Deboj ko'rkidagi toj durri gavhari" asarining Toshkentda saqlanayotgan nusxasida bu narsani ko'rmadik", – deydi.

Maqom XIX asr boshlaridan klassik musiqa shakllari turkum ko'rinishdagi mustaqil musiqiy asarlarni va ularning majmuasini anglatuvchi terminga aylandi. Xususan, Shashmaqom: Maqomi Buzruk, Maqomi Rost, Maqomi Navo, Maqomi Dugoh, Maqomi Segoh, Maqomi Iroq [5, 58-b].

Musiqa ijodiyotida maqom boshqa janrlardan o'zining badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslarining puxta ishlanganligi bilan farq qiladi. O'zbekistonda maqom san'atida cholg'u va ashula yo'llari va turkumlari – Buxoro "Shashmaqomi", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" turkumlari, shuningdek, uning lokal turkumlari – Farg'ona "Surnay maqom yo'llari", Xorazm "Dutor maqom turkumi", "Feruz" turkumi va boshqalar mavjud.

Uchinchi Rennsans poydevorini qurishdek mas'uliyatli bir davrda O'zbekiston o'z milliy maqom san'atini va musiqa madaniyatini o'rganish, targ'ib qilish, milliy musiqa an'alarini asrab-avaylash, rivojlantirish, ijodiy hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro musiqa festivallarini tashkil etish borasida bir qator ijobiy ishlarni olib bormoqda. Xususan, ilmiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan voqea,

ya'ni "Shashmaqomi" nota matnlari nashr etildi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlari magnit lentalariga yozib olindi. Shuningdek, 2017-yil 17-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qarori qabul qilindi va 2018-yildan boshlab har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Sharq xalqlari mumtoz musiqa san'atining yetakchi janri – maqomlarni keng targ'ib qilish, maqom an'alarini zamonga mos e'zozlab saqlash, o'rganish, o'zlashtirish, rivojlantirish, azaliy an'analarni tiklash, zamon ruhi bilan sug'orilgan ijrolarni shakllantirish va jahonda keng targ'ib etish, maqom san'atining mohir ijrochilarini rag'batlantirish, yosh avlod qalbida maqom san'atiga e'tibor va mehrni oshirish, musiqiy merosning boy, badiiy va estetik imkoniyatlarini tarannum etish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash kabi xayrli ishlarni amalga oshirishdan iborat [6, 50-b].

Xalqaro maqom festivali maqom san'atini targ'ib qiluvchi madaniy tadbirlardan biridir. Xalqaro maqom festivali kabi anjumanlarning o'tkazilishi milliy o'zlikni anglash, madaniyatni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, tafakkurini yuksaltirishda san'atning keng imkoniyatlaridan foydalanish, xususan, tarixning ma'rifatli davrini qayta jonlantirish bo'yicha mas'uliyatli vazifalarni amalga oshiradi [7]. Ayniqsa, ko'p millatli O'zbekistonda festivallar va forumlar, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va davra suhbatlari aholi o'rtasida madaniy integratsiyani ta'minlash orqali xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlab, dunyo tinchligi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni keng targ'ib etadi.

Xalqaro maqom festivallarining asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

- Sharq xalqlari musiqa san'atlarini rivojlantirish va uning ahamiyatini yanada oshirish, O'zbekiston hamda boshqa davlat xalqlarining musiqa va maqom san'ati an'alarini qamrab olish, ular bilan yaqindan ilmiy va ijodiy muloqotlar va hamkorlik qilish;

- Sharq mamlakatlari musiqa va maqom san'atining an'analarini asrash, madaniy muloqotni yanada rivojlantirish;

- Sharq xalqlari bilan maqom va an'anaviy musiqa san'ati sohasidagi ilmiy o'rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etish.

Yana bir asosiy vazifalaridan biri bu – nafaqat Sharq xalqlari o'rtasida, balki O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 130dan ortiq millat va elatlar o'rtasida madaniyatlararo almashinuv va madaniy integratsiyani ta'minlash.

Uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida o'zbek etnogenezida turli urug', qabila, elatlar o'zaro aloqaga kirishib, o'ziga xos bir madaniyat yaratganki, aynan ushbu aloqalar o'z atrofida avlodlarni birlashtirgan. Ushbu jarayonlar tufayli xalq madaniyati ichida o'ziga xos beoromlik qaror topgan, ya'ni urug', qabila, elatlarning bir-biriga madaniy ta'siri, ijodiy izlanishlar, innovatsiyaga intilish, plyuralizmni qo'llab-quvvatlash va nihoyat tolerantlik shakllangan. Bir xil badiiy-estetik obrazlar va syujetlarning o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz etnomadaniyatlarida uchrashi ham aslida o'sha jarayonlar mahsulidir [8].

O'zbek xalqining O'rta Osiyo xalqlari bilan bir jo'g'rofiy hududda yashagani, xo'jalik-madaniy tiplari va ijtimoiy-tarixiy hayotining o'xshashligi, bir yirik etnos – turk qavmiga mansubligi, diniy e'tiqodlarining birligi kabilar o'zbek madaniyatida integrativ belgilar (funktsiyalar)ning mavjudligidan dalolat beradi. Shu o'rinda O.Nishonovning fikrlari diqqatga sazovor: "O'rta Osiyoda turli xalqlar (fors, arab, mo'g'ul, rus, grek-makedoniyaliklar) ijtimoiy-madaniy qadriyatlari sintezlashib, ushbu belgilar nafaqat o'zbeklarni, shu bilan birga O'rta Osiyodagi barcha xalqlarni o'z atrofida birlashtirgan. Ushbu madaniyatdagi Sharq (Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Turkiya, arab davlatlari, Kavkaz) xalqlari madaniyatiga yaqin belgilarning mavjudligi bizni ushbu xalqlar tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlarini to'g'ri tushunishga, etnogenez nuqtayi nazaridan esa yaqin xalq, qavm ekanimizni anglashga undaydi. Bu esa ushbu xalqlarni etnomadaniy qadriyatlar atrofida integratsiyaga kirishib yashashga da'vat etadi".

Ko'p millatli davlatlarda milliy madaniyatlarning integratsiyasi uchun o'ziga xos ijtimoiy ma'naviy makon mavjud bo'ladi. Bu milliy bag'rikenglik, milliy totuvlik va hamjihatlik, turli xalqlar madaniyati, turli tillar, millatlararo muloqot madaniyati o'ziga xos demokratik, bag'rikenglik muhitini yaratadi. Bundan milliy madaniyatlar faqat boyishi mumkin. Bu milliy madaniyatlarning rivojlanib, yanada yuksalishiga xizmat qiladi. Maqsadi turli millatlarni o'zlariga xos milliy ma'naviy qadriyatlarini asrab avaylash, hamda yanada boyitishdan iborat. Bu dunyodagi global o'zgarishlar davrida ayrim milliy-madaniy tahdidlarning oldini oladi. Milliy nizo va ixtiloflarga, milliy egoizm, agressiv millatchilik, separatizm va milliy ayirmachilik shular jumlasiga kiradi [9, 65-b]. Umuman olganda, mintaqaviy integratsiya nafaqat ilmiy va ijtimoiy almashinuv, balki madaniy, iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga ham qaratilgan [10].

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi – Markaziy Osiyoning aholi eng zich yashaydigan, o'ziga xos iqlimi, geografik joylashuvi, urf-odat va qadriyatlaridagi milliy mental xususiyatlari bilan boshqa hududlardan ajralib turadigan eng noyob hududlaridan biri bo'lib, u O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida joylashgan. Bu vodiya asrlar davomida turli millat vakillarini birlashtirib kelgan, haqiqiy madaniyatlar chorrahasi bo'lgan maskandir.

Farg'ona vodiysidagi etnik xilma-xillik tarixi qadimgi davrlardan boshlangan bo'lib, Markaziy Osiyo orqali o'tgan migratsiyalar, istilolar va savdo yo'llari ta'sirida shakllangan. Vodiya asrlar davomida o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, ruslar va boshqa elatlar o'zaro aloqada bo'lib, birgalikda hayot kechirgan madaniyatlar va etnik guruhlarining o'ziga xos “qorishma qozoni” (melting pot) bo'lib xizmat qilgan [11]. Ellin, Baqtriya, Parfiya, Xitoy va Islom sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgan Farg'ona vodiysi madaniy almashinuvning noyob markazi bo'lib, bugungi kunda uning tillari, an'analari, oshxonasi va me'morchiligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Farg'ona vodiysi turli madaniyatlarning birgalikda yashashi nafaqat mumkin, balki samarali ekanligining yorqin dalilidir. Bu yerda nafaqat

an'analar saqlanib qoladi, shu bilan birga hamkorlikning qo'shma bayramlardan tortib transchegaraviy tashabbuslargacha bo'lgan yangi shakllari doimiy ravishda paydo bo'ladi. Oxirgi yillarda mintaqa samarali ravishda madaniyatlararo muloqot ideallari faol amalga oshiriladigan madaniy konvergensiya laboratoriyasiga aylandi. Farg'ona shunchaki xaritada nuqta emas – bu hurmat muloqot tiliga aylanadigan, do'stlik qo'shnihilikning poydevorini, madaniy xilma-xillik esa birlik manbayi bo'lgan makondir [12].

Farg'ona vodiysida etnomadaniy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish uchun samarali millatlararo munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mintaqa turli etnik guruhlar o'rtasida o'zaro anglashuv, hurmat va hamkorlikni rag'batlantirish orqali o'zining madaniy xilma-xilligidan qudratli kuch va o'zlikni belgilovchi manba sifatida foydalanishi mumkin. Ushbu integratsiya etnik farqlardan kelib chiqadigan keskinlik va nizolarni yumshatishga xizmat qiladi. Farg'ona vodiysida etnik va madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlash o'zining rang-barang merosini qadrlaydigan jipslashgan va inklyuziv jamiyatni shakllantirishning muhim shartidir. Vodiydagi millatlararo munosabatlar madaniy uyg'unlik va gibridlikka (madaniy qorishishga) xizmat qiladi, bunda turli etnik guruhlar o'zaro aloqaga kirishadi, g'oyalar almashadi va bir-birlarining madaniyat jihatlarini o'z madaniyatiga integratsiya qiladi [13, 2-p].

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, mintaqada millatlar madaniy farqlarni qabul qilish va umumiy merosni qadrlash orqali o'zlarining ijtimoiy tuzilmasini yuksaltirishlari hamda tegishlilik tuyg'usini mustahkamlashlari mumkin. Bunday madaniy o'zaro ta'sir (integratsiya) o'zaro anglashuv va e'tirofni rag'batlantiradi, bu esa mintaqada yanada jipslashgan va bardoshli jamiyat shakllanishiga olib keladi. Farg'ona vodiysi musiqa madaniyati va ijrochilik san'ati o'zining serqirra ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Shu o'rinda xalq san'atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonovning fikrlari diqqatga sazovor: "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, mevalari Farg'onadir". Farg'ona vodiysida yuzlab ulug' san'atkorlar yetishib

chiqqanligi tarixdan ma'lum. Ular bastakorlik, hofizlik, sozandalik borasida o'zlarining maktablarini yaratib milliy musiqamizga benazir hissalarini qo'shdilar.

O'zbek maqom san'atining Toshkent-Farg'ona yo'nalishi ham betakrorligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysida XIX–XX asrlarda keng tarqalgan turkumli (Farg'ona-Toshkent maqomlari) va turkumsiz (Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) ashula va cholg'u maqom yo'llari bo'lib, Shashmaqom shubalari negizida va mahalliy ijrochilik an'analari bilan sug'orilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlari – Toshkent va Farg'ona vodiysi musiqa madaniyatida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomidir. Farg'ona-Toshkent maqomlari Shashmaqom ashula bo'limining sho'balarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan (she'riy matnlari sifatida mumtoz shoirlar – Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodira, Zebuniso, Amiriy, Muqimiy, Furqat va boshqalarning g'azallari qo'llangan). Bayot, Chorgoh va Dugoh-Husayniy maqomlari Shashmaqomning shu nomlar bilan atalgan sho'balari (Navo va Dugoh maqomlari), Shahnoz-Gulyor esa turli maqom sho'balari (Segoh va Rost maqomlari) asosida yuzaga kelgan. Ushbu maqom o'z tuzilishi jihatidan boshqa turkumlardan tubdan farq qiladi. Uning shoxobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llari bo'lib, jozibali, yoqimli ham ta'sirchan ohanglarga boy.

Toshkent-Farg'ona yo'nalishida Ashurali Hofiz (1850–1913), Mirza Qosim Hofiz (1850–1917), Mo'minjon Hofiz (1860–1910), Mo'ydin Hoji (1885–1958), Berkinboy Fayziyev (1885–1945), Jamolxon Hofiz (1850–1916), Abdulla Taroq (1870–1952), Madumar Hofiz (1884–1935), Zebo Pari (1826–1910), Mamatbuva Sattorov (1885–1967), Erka Qori Karimov (1880–1954), Mahkam Hofiz (1865–1915), Hamroqul qori To'raqulov (1872–1943), Mulla To'ychi Toshmuhammedov (1868–1943), Shorahim Shoumarov va boshqalar sermahsul ijod qilib, xalq orasida “hofiz” sifatida nom qozongan.

Vodiydagi asosiy etnik guruhlar maqom san'atiga turlicha, lekin bir-birini to'ldiruvchi hissalar qo'shganlar. Xususan, o'zbeklar maqomning asosiy tashuvchisi

va ijodkorlaridan biri sifatida vokal an'analarni, she'riy repertuarni va cholg'u usullarini saqlab kelgan bo'lsalar, tojiklar fors-tojik klassik adabiyotining chuqur ta'siri ostida Hofiz Sheroziy, Rumi, Navoiy g'azallarini maqom matniga singdirganlar. Hatto, tojik ijrochilari ba'zan o'zbek ijrochilariga qaraganda yuqoriroq falset ovoz uslubini qo'llaganlar. Uyg'urlar o'zlarining "On ikki muqam" an'anasidan ba'zi modal va ritmik xususiyatlarni vodiydagi umumiy musiqa muhitiga olib kirganlar. Buxoro yahudiylar jamoasi vakillari an'anaviy ravishda professional sozanda va xonandalar sifatida tanilgan bo'lib, maqom ijrosining tarqalishida muhim rol o'ynagan. Bu esa, yurtimizda turli millat vakillarining har jihatdan mushtarak yashab kelishiga xizmat qilib kelmoqda.

Farg'ona vodiysi shaharlari – Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon – har biri o'ziga xos ijro an'analari bilan maqom maktabining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Maqom san'atini o'rganish nafaqat tarixiy-madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda: bu san'at millatlararo totuvlikning jonli namunasi va madaniy integratsiyaning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqom san'ati asrlar davomida ushbu xilma-xillik muhitida asrlar davomida umumiy ma'naviy muloqot tili vazifasini bajarib kelgan.

Xulosa o'rnida, xalqaro maqom san'at anjumanlari kabi madaniy tadbirlar Farg'ona vodiysidagi etnik guruhlarining rang-barang madaniy an'analari hamda urf-odatlarini saqlash va targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bunday madaniy tadbirlar orqali og'zaki tarix hujjatlashtiriladi, tarixiy obidalar qayta tiklanadi, shuningdek, O'zbekistonda maqom san'ati yanada rivojlantiriladi, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar hamda an'analari, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosi chuqur ilmiy asosda o'rganiladi. Farg'ona vodiysida bunday tashabbusning amalga oshirilishi mintaqaning boy madaniy merosini asrab-avaylash, millatlararo totuvlikni rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda iftixor tuyg'usi va barqarorlikni mustahkamlash uchun hayotiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Najmetdinova M. *Maqom san'ati va uning yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* – 2023. – № 3(2). – B. 814.
2. Jo'raqulov F. *Tarixni uyg'otgan maqom – buyuk ma'naviy meros.* <https://uza.uz/>. Murojaat sanasi: 26.05.2026
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3391-sonli qarori. 17.11.2017. www.lex.uz. Murojaat sanasi: 26.05.2026
4. Rajapov I. *Maqomlar.* – Toshkent: San'at, 2006. – 403 b.
5. Oripov Z. *O'zbek maqomshunosligi tarixi va “Maqom” terminining genezisi haqida // Sharq mash'ali.* – Toshkent, 2018. – №2. – B. 55–58.
6. Murtazova S. *Maqom festivali – xalqaro hamkorlikning yangi bosqichi // O'tmishga nazar.* – 2020. – №3. – B. 50.
7. Nishonova O. *Madaniy integratsiya – umuminsoniylikni rivojlantirish omili.* <https://inlibrary.uz>. Murojaat sanasi: 25.05.2026
8. Kuramboyev A. *Milliy madaniyat modernizatsiyasida til, milliy, ma'naviy meros sohasidagi o'zgarishlar // “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar”: konferensiya to'plami.* – B. 65–68.
9. Musulmon Z. *Mintaqaviy integratsiya va yoshlar.* <https://uza.uz>. Murojaat sanasi: 25.05.2026
10. Rashid A. *The Resurgence of Central Asia: Islam or Nationalism?* – Karachi: Oxford University Press; London: Zed Books, 1994. – 278 b.
11. Sobirov A. *Farg'ona vodiysi-umumiy qadriyatlar va madaniy yaqinlik makoni.* <https://shanghai.mfa.uz>. Murojaat sanasi: 24.05.2026
12. Bekmirzaev R. *Geopolitical and Ethnocultural Integration of The Ferghana Valley.* doi: 10.20944/preprints202407.0004.v1. – 2024. – P. 2.
13. Mackerras C. *Review of “Dislocating China: Muslims, Minorities, and Other Subaltern Subjects”, by D.C. Gladney // China Review.* – 2005. – Vol. 5, No. 1. – P. 155–157.